



O'zbekiston Milliy axborot agentligi
O'zA Ilm-fan bo'limi

Elektron jurnal
2024-yil aprel soni №4 (54)

Toshkent-2024

O‘ZBEKISTON MILLIY AXBOROT AGENTLIGI – O‘ZA ILM-FAN BO‘LIMI (ELEKTRON JURNAL)

Ilmiy nashr
2024-yil aprel oyi soni №4 (54)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagi 263/7.1 va 263/7.4-son qaroriga binoan tashkil etilgan.

Elektron jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e‘lon qilingan maqolalardan olingan parchalar O‘ZA Ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal)dan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Elektron jurnalga bir yarim oraliqdagi materiallar “Microcoft Word” redaktori, “Times New Roman” shriftida elektron versiya shaklida qabul qilinadi.

Tahrir kengashi

A.Ko‘chimov
A.Asqarov
D.Yu.Yusupova
A.X.Saidov
T.O‘.Aripova
Q.R.Allaev
S.M.Turobjonov
Sh.T.Qudratxo‘ja
N.A.Husanov
N.K.Achilov
G.A.Mardonova

Q.Sh.Omonov
A.S.Sagdullaev
S.S.G‘ulomov
F.G.Nazirov
R.D.Kurbanov
M.H.Rustamboev
N.M.Mahmudov
I.S.Saifnazarov
N.X.Oblomurodov
N.N.G‘afforov

TARIXIY HIKOYALARDA BOBUR HAYOTI LAVHALARINING BADIY AKS ETTIRILISHI

Olmos XURRAMOV

o'qituvchi

Alisher Navoiy nomidagi
o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston
khuramov.@navoiy-uni.uz

Аннотация

Maqolada hikoya janrining o'ziga xos xususiyatlari, hikoya janrida qahramon hayotining bir lavhasi badiiy aks ettirilishi haqida mulohazalar bildirilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti o'ta qiziqarli, sarguzashtli, drammatizm va tragik vaziyatlarga boy bo'lgan murakkab hayot yo'li bo'lib, Xayriddin Sulton, Baxtiyor Omon, M.Uzoqovlar asarlari asosida unga munosabat bildirilgan.

Tayanch so'zlar: tarixiy mavzu, tarixiy hikoya, drammatizm, tragik vaziyat, epizod, qahramon, portret, Bobur obrazi, Boburning bolaligi.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОТРАЖЕНИЕ СЦЕН ЖИЗНИ БАБУРА В ИСТОРИЧЕСКИХ РАССКАЗАХ

Алмас ХУРРАМОВ

преподаватель

Университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои

khuramov.@navoiy-uni.uz

Аннотация

В статье раскрываются особенности жанра рассказа, художественное изображение эпизодов из жизни героя. На основе произведений Хайридина Султана, Бахтиёра Амона, М.Узокова исследуется раскрытие жизненного пути Захириддина Мухаммада Бабура, полной приключений, драматизма и трагических ситуаций.

Ключевые слова: историческая тема, исторический рассказ, драма, трагическая ситуация, эпизод, персонаж, портрет, образ Бабура, детство Бабура.

Barcha nazariy adabiyotlarda qayd etilishicha, hikoya janrida qahramon hayotining bir lavhasi badiiy aks ettiriladi. Tarixiy hikoyalarda ham xuddi shu tamoyilga amal qilinadi. Farqi shundaki, zamonaviy hikoya muallifi ko'proq birovning og'zidan eshitib ta'sirlangan yoki o'z ko'zi bilan ko'rib guvoh bo'lgan favqulodda voqealarni qalamga olsa, tarixiy hikoya muallifi asosan tarixiy manbalarga, tarixiy dalillarga asoslanadi. "Hikoyada tasvirlangan voqea o'z

mohiyati va ahamiyati jihatidan epik turning roman, povest kabi janrlaridan farqlanmasa ham, biroq tasvirning ko‘lami, syujet va kompozitsiyaning nisbatan soddaligi, bayonning asosan bir shaxs tomonidan olib borilishi jihatidan farqlanib turadi” [7., 250].

“Hikoya odatda qahramon hayotidan bitta (ba‘zan bir-biriga uzviy bog‘liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi H.ning hajman kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo‘lishini taqozo etadi... Hikoya ostida yotgan voqeaning yaxlit, tugal bo‘lishi talab etiladi, buning uchun u o‘zining boshlanishi va yakuniga ega bo‘lishi (masal, latifadagi kabi) lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi” [3., 395].

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti o‘ta qiziqarli, sarguzashtli, dramatism va tragik vaziyatlarga boy bo‘lgan murakkab hayot yo‘lidir. “Boburnoma” va boshqa tarixiy asarlarda tasvirlangan u haqdagi barcha voqea-hodisalar kichik lavha sifatida yaxshi hikoya uchun asos bo‘lishi mumkin. Masalan, Boburning Samarqandni tashlab chiqishi, Xoja Ahror Valiyni tush ko‘rishi bilan bog‘liq voqea, Afg‘oniston yo‘lidagi dovonda qor kechishi, malika Bayda tomonidan zaharlanishi, o‘limi kabi qator lavhalar mukammal, jahonshumul hikoyalarga mavzu bo‘lishi mumkin. Ayni paytda, Boburning o‘zi ham o‘ta mohir hikoyanavis. Uning o‘zi va o‘zgalar haqidagi voqealarni hikoyalash yo‘li, uslubi, kompozitsiya va syujetni qurish mahorati, obraz va portretni tasvirlashdagi badiiyati har qanday hikoyanavis uchun maktab bo‘ladigan darajada mukammaldir.

Zamonaviy o‘zbek nasrida X.Sultonovning “Oy botgan pallada”, “Nuqta”, B.Omoning “Boburning bolaligi”, M.Uzoqovning “Bobur sog‘inchi” hikoyalarinigina janr talablariga to‘la javob beradigan asarlar sifatida qayd etish mumkin.

X.Sultonov Bobur haqida ikkita hikoya yozgan. Bizningcha, yozuvchining har ikki hikoyasi ham Bobur hayotining muhim pallalarini yoritishi jihatidan muhimdir. Ularning birinchisi “Oy botgan pallada” hikoyasi bo‘lib, u haqda “Boburiynoma” kompozitsiyasining muhim bir bo‘lagi sifatida oldingi boblarda so‘z yuritildi. Ikkinchi hikoyasi “Nuqta” deb nomlanadi.

Dastlab hikoya sarlavhasi haqida mushohada yuritadigan bo‘lsak, uning “Nuqta” deb nomlanishining o‘zi bir badiiy jumboqdir. Ma‘lumki, ma‘noni yashirin ifodalash so‘z, ibora, jumla va detallar vositasida amalga oshiriladi. Shunda ushbu badiiy unsurlarning barchasi bir emas, biryo‘la bir nechta ma‘no qatlamlariga ega bo‘ladi.

X.Sultonovning ushbu hikoyasida esa “nuqta” so‘zi bir nechta ma‘nolarda kelganini e‘tirof etish mumkin. Birinchidan, hikoya ma‘lum ma‘noda epistolyar mohiyat kasb etadi. U Boburning o‘g‘li Humoyunga maktubi asosiga qurilgan. Ma‘lumki, har qanday xatning oxirgi belgisi – bu nuqta hisoblanadi. X.Sultonov hikoyasi ham Bobur maktubidagi so‘nggi nuqta bilan nihoyalanadi.

Ikkinchidan, Bobur xatining mazmun-mohiyatida o‘g‘lidan har narsaga e‘tiborli bo‘lish, inshoda hatto nuqta (zeru zabar)ni ham diqqatdan qochirmaslik haqida so‘z boradi. Yozuvchi asarning xulosasida bunga shunday izoh beradi: “Biz ham shu o‘rinda hikoyaga nuqta qo‘ysak bo‘lar. Ammo hikoyaga sig‘may qolgan ikki og‘iz mulohaza borki, muhtaram kitobxon buning uchun bizni aybsitmas.

Boburdek muhtaram zotning bir nuqta tufayli bu qadar iztirob chekkani bejiz emas edi – hayot buni isbotladi: taqdirning g‘alati o‘yinini qarangi, Bobur vafotidan keyin ham zeru

zabar jabrini tortadi – uzoq yillar mobaynida nomi “Bobir” deya yozib kelinadi. Faqat uning besh yuz yillik to‘yi arafasida nuqtadon bir olim “Bobir emas, Bobur!” deya na’ra tortib chiqadi-yu bu boradagi “g‘alati mashhur” bartaraf etiladi.

Bir nuqtaning tarixi, qadri va mavqeyi ana shunday.

Tamom. Nuqta” [5., 228].

Uchinchidan, sarlavhada bu maktub Bobur o‘limi arafasida, uning hayotiga taqdirning so‘nggi nuqtasi qo‘yilishidan bir bahiya oldin yozilganga ishora bor.

Hikoyaning birinchi jumlasini ham so‘nggi punktadagi xulosamizni tasdiqlaydi: “Boburning hasratidek uzun yomg‘ir...” [5., 227]. Albatta, bu hasrat o‘limdan qo‘rquv hasrati emas. Bu hasrat qatlarida Boburning ulkan jahongirlik yo‘li, Vatan hajri, yutuqlari va xatolari mujassam. Yomg‘ir detali ham ma‘lum ma‘noda g‘am-anduh va hasrat ifodasini kuchaytiradi. Odatda yomg‘ir inson qalbida umr yo‘llari va intiho haqidagi o‘y-mushohadalarni uyg‘otadi. Hasratli xotiralarni qo‘zg‘aydi. Faqat shu o‘rinda bir mulohaza. Ushbu quyma jumlada bir qo‘shimcha, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi “ning” fikrning falsafiy mohiyatini toraytirib turganga o‘xshaydi. U o‘z-o‘zidan hasratning bemisl fojiviy quvvatini susaytirib, o‘quvchi nigohini Bobur shaxsiyati, kechmishiga qaratadi. Agar jumla “Bobur hasratidek uzun yomg‘ir” bo‘lganida bu hasrat xususan umumga tomon yo‘nalgan, bashariyat hasrati bilan uyg‘unlashgan, Bobur hasratining nihoyasizligiga yanada teranroq ishora bergan bo‘lardi, deb o‘ylaymiz.

Hikoyaning keyingi qismlari ham sarlavha va birinchi jumlagaga monand holda falsafiy mazmun kasb etadi. Bobur navqiron o‘g‘liga nasihatimiz maktub bitar ekan, o‘zining umri nihoya topayotganiga yana bir bor amin bo‘ladi: “Alisherbekning hikmat to‘la, dard to‘la bayti iqrar tig‘i bilan yuragini tilib o‘tadi:

Soqol oqi o‘limg‘a peshravdur,

Tiriklik sabzasi ichra qirovdur” [5., 201].

Bobur o‘z o‘g‘lining navqiron yigitga aylangani, yurt boshqaruvida kamolat hosil qilayotganidan xursand. Farzand ko‘rganidan esa boshi osmonga yetadi. Ammo Humoyun maktubidagi hashamdorlik, dabdaba Boburga o‘tirishmaydi. Bobur maktublarda ham o‘z hayoti kabi soddalik, to‘g‘rilik va aniqlik bo‘lishini istaydi. Humoyun o‘z o‘g‘liga qo‘ygan Al‘amon ismidagi ham sun‘iy dabdaba, xalq tilini va dilini anglamaslik yotganidan ranjiydi: “Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro‘zi qilg‘ay, omin yo Robbal olamin, deya davom etdi u.-Otini Al‘amon qo‘ymishsan. Tengri muborak qilg‘ay. Vale bovujudkim, o‘zung bitibsen, mundin g‘ofil bo‘lubsenkim, kasrati iste‘mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o‘zga mundoq alif-lom otta kam bo‘lur...” [5., 220].

Inshodagi kichik bir xato mutafakkir otani chuqur o‘yga toldiradi. Xayolan tarixga safar qildiradi. O‘z otasini qatl etgan Abdullatif, mast holatda nabirasi Mo‘min Mirzo o‘limi haqidagi farmonga imzo chekkan Sulton Husayn qilmishlarini eslaydi. Ushbu xotiralar uni Vatan haqidagi iztirobli armonlarga yetaklaydi. Vatanni tark etish sahnalari, temuriy shahzodalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, Shayboniy ta‘qibi ostida yurganida uni hech kim qo‘llamagani kino lentasidek ko‘z oldidan bir-bir o‘tadi.

Hikoyaning mana shunday o‘rinlarida hikoyanavis epistoliar janr chegaralaridan chiqib ketadi. Boshqacha aytganda, bu janr imkoniyatini kengaytiradi. Maktub mazmuniga hikoya qahramoni xotiralarini bog‘lash orqali muallif assotsiativ tasvir usuliga murojaat qiladi. Bu

orqali asar badiiyatini oshirishi bilan birga hikoyaning badiiy zamon va makon ko‘lamini kuchaytiradi.

“Yana sendin ozroq ginam bor,-deya xat boshidan yozdi u,-bu ikki-uch yildin beri bir kishing kelmadi. Men yuborgan kishi ham rost bir yildin so‘ngra keldi. Mundoq bo‘lurmi?” [5., 222].

Keksaygan shoh va otaning hasrati, arkoni davlat, hashamat va shon-shuhrat ichidagi yolg‘izligi maktubdagi shu parcha orqali yaxshi asoslangan. Shu gapni yozgan Boburning chap qulog‘i orqasida og‘riq turadi, qalam tutgan qo‘li titraydi. Bu sof fizik va psixologik holat. Voqelikda ham yomon xotiralar inson ruhiyatida g‘ayrioddiy qo‘zg‘alish uyg‘otadi. Quloq orqasining sanchishi ruhiy iztirobning tana a‘zosiga bergan salbiy signalidan dalolat beradi. Yozuvchi faqat shu bilan cheklanmaydi. Quloq og‘rig‘ining tabiiy asoslarini ham beradi. Bu orqali Bobur dardining nihoyatda teran ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma‘naviy ildizlarga ega ekanini ta‘kidlaydi. Ko‘tali Zarrinda misli ko‘rilmagan bo‘ronga duchor bo‘lgani, oddiy askarlar qatori qalin qorni o‘yib yerto‘la yasagani, shu joyda tunni g‘aribona o‘tkazgani haqidagi “Boburnoma”dagi dalilni keltiradi. Beklari Boburni nisbatan qulayroq g‘orda dam olishga chorlaydilar: “Axir qaysi yuz bilan borsin? Barcha navkarlari bunda – bo‘ron changalida titrab-qaqshab o‘tirsay-u, u issiq g‘orda, farog‘at og‘ushida mudrasa!...” [5., 222]. Bu bilan muallif Bobur tabiatidagi botiniy demokratiya, mardlik, jasorat va irodani ta‘kidlaydi.

M.Uzoqovning “Bobur sog‘inchi” hikoyasi Bobur hayotidagi bir muhim epizod haqida. M.Uzoqov voqea o‘rni va vaqtini to‘g‘ri tanlagan. Natijada Bobur tarjimai holining fojiaiy nuqtalaridan biri bo‘lgan Vatanni tark etish voqeasini tasvirlash orqali bu tarixiy shaxs obrazining yorqin qirralarini ochib berishga erishgan.

Hikoya A.Qodiriy yo‘lida vaqt tasviri bilan boshlanadi: “Hijriy 909, milodiy 1504-yil” [6., 113]. Hikoya voqealari Isfaraning So‘x qishlog‘ida bo‘lib o‘tadi.

Dastlab So‘x soyi, soyga quyiluvchi ariqlar, irmoqlar, soy qirg‘og‘ida o‘sgan changal, yovvoyi jiydalar tasviri keladi. Bunda muallif peyzaj tasviri orqali Boburning vatani haqida ramziy tasavvur berishni maqsad qilgan. Darhaqiqat, vatan degani o‘ziga kelib quyiluvchi turli viloyat, tuman, qishloq va xonadonlardan tashkil topadi. Uning qirg‘oqlarida har xil o‘t-o‘lanlar, daraxtlar, tikan va changallar singari turli-tuman odamlar yashaydi. Vatan taqdirini aynan shular belgilaydi. Agar bevaqt bo‘ron esib, shu daraxt yoki o‘simliklardan birontasini Vatan bag‘ridan yulib ketsa, bundan vatan ko‘ksida ham, uning farzandi ko‘ksida ham o‘chmas jarohat qoladi. Bizningcha M.Uzoqov yuqoridagi peyzaj tasviri orqali mana shunday milliy falsafani ilgari surgan.

Keyingi tasvir bevosita Boburga ko‘chadi. “Bir haftadirki, g‘animlari tufayli bobomeros ota yurtidan, mol-mulkidan, suymasada marhum to‘ng‘ichining onasi bo‘lmish yoridan judo bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning So‘x va Hushyor ko‘hpoyalariga tarqatilgan kamsonli, ammo sadoqatli bek va navkarlari qurol-yarog‘, ba‘zilari ot, yengil ko‘ch-ko‘ron, ahli ayoli bilan So‘x kentiga yig‘iladilar” [6., 113]. Ushbu jumla, talay o‘tmish va hozirgi zamonga oid ma‘lumotlar, holat va harakatlar qalashtirib tashlangan bo‘lsa-da, o‘quvchida Boburning shu paytdagi ijtimoiy holati haqida muayyan axborot bera oladi. Ammo ruhiy holat, Bobur va uning qo‘shini ichida kechayotgan botin vaziyati bu jumladan anglashilmaydi. Jumla bor-yo‘g‘i xabar funksiyasini bajaradi, xolos. Ayniqsa, Boburning xotiniga nisbatan ishlatilgan “suymasada” so‘zi bu ulkan tarixiy vaziyat xarakteriga mos tushmagan. Ayni paytda, shoh

rutbasidagi shaxsning vafot etib bo‘lgan ayoliga qarata “suymaslik” munosabatining oshkor qilinishi bu o‘rinda o‘quvchi nazaridan shafqatsizlik bo‘lib tuyulishi turgan gap. O‘ylaymizki, Bobur shoir qalbli hassos inson sifatida bu so‘zni ishlatishdek tubanlikka bormas edi. Agar bu yozuvchining topilmasi yoki tarixiy faktni badiiylashtirishdagi usuli bo‘lsa, o‘zini hech jihatdan oqlamaydi.

Hikoyadagi keyingi epizod mashvarat. Bu epizod mazmunan Bobur boshchiligidagi qochoqlarning So‘xda qolib ketganlari. Buning sababi So‘xdan Afg‘onga o‘tadigan dovonning qor bosgani, endi ketish payti bo‘lganini bildirishga qaratilgan. Mashvarat davomida Bobur obrazi tabiatiga xos ikki jihat namoyon bo‘ladi: birinchisi, Bobur ham xuddi bobosi amir Temurdek jiddiy masalalarni hal etishda mashvaratga tayanganligi. Bunda Bobur Xo‘ja Kalonbek, Shirimbek, Sulton Ahmad qorovul, Boboyi Peshag‘ariy so‘zlari, mulohaza, mushohadalarini diqqat bilan tinglaydi. Ulardan ba‘zilari ekin-tikin bitib, oziq ko‘payguncha kutishni, boshqalari siyosiy vaziyat tangligi, Shayboniyxon, Sulton Ahmad, Ahmad Tanbalning yaqinlashib qolgani sabab tezroq yo‘lga chiqishni taklif etadilar; ikkinchisi, Bobur o‘zgalarning fikrlarini tinglashni bilishi, ularni solishtirib ichki muhokama qilishi, so‘nggi qarorni esa shu asosda mantiqan chiqarishi. Shu tariqa mashvarat so‘ngida Bobur o‘z qarorini e‘lon qiladi: “Ko‘ngli ko‘tarilgan bo‘lsa ham aytilgan gaplarning og‘irligidan bir muddat tin olgan Mirzo nihoyat, dedi:

– Tongda yo‘lga chiqamiz” [6., 117].

Navbatdagi epizod peshin namozi, unda kim imomatga o‘tishi haqida. Bunda ham Bobur oxirgi qarorni aytadi. Imon-e‘tiqodi, ma‘naviyati barchadan yuksak kishini tavsiya etadi: Mulla Abduqodir o‘tsin deydi. Xufton namozi epizodi peshin epizodiga ulanib ketadi. Bunda, asosan, Boburning ichki holatiga e‘tibor qaratiladi. Komil mo‘min sifatida Bobur o‘z safarini xayrli qilishini so‘rab Allohga iltijo qiladi. Joynamoz ustida uzoq qolib ketadi. Muallif mana shu ikki namoz tasviri orqali Bobur ma‘rifiy dunyosini to‘laroq namoyon etishga erishganini alohida ta‘kidlashni istardik.

Safar oldidagi tunda Bobur chuqur xayolga toladi. Shu paytgacha boshidan o‘tkazgan kunlarni o‘ylaydi. Uning xayoliy assotsiatsiyasi tarzida Samarqand, Saripul kabi geografik makonlar, Toshkent, Mirzo Ulug‘bek, Sulton Husayn, Sulton Mahmudxon, Qutlug‘ Nigorxonim singari tarixiy shaxslar sahnada ko‘rinadi. Bu xotira tasviri jarayonida garchi biroz tig‘iz holatda berilgan bo‘lsa-da, hikoya muallifning yurtimiz tarixi, ayniqsa, “Boburnoma”ni yaxshi bilishi ma‘lum bo‘ladi. Qisqa tush epizodi orqali muallif Boburni otasi Umarshayx Mirzo bilan bog‘laydi. Safarga qonuniy, ma‘naviy tus berishga erishadi.

Hikoyadagi yana bir epizod diqqatni tortadi. Safar oldidan Qorabuloqlik qirg‘iz biyi Boburga barcha anjomlari bilan ajoyib arg‘umoq hadya qiladi. Bunda qirg‘iz biyiga xos sof turkona xarakter namoyon bo‘lishi bilan birgalikda, mahalliy mezbon aholining Boburga nisbatan chuqur hurmati va muhabbati ham aks etgan.

– Yaxshi boqib sovitilgan zotli tulpor,– deydi otni hadya qilayotib biy.–Quvsangiz yetkazadi, qochsangiz qutqaradi. Yopinchig‘i yog‘in-sochinli, issiq-sovuq tog‘ havosida ish beradi. Mirzam, biz chorvadorlarning bolalari uchun yaratishga kirishganingiz, o‘rganilishi o‘rg‘ay – yangi yozuvni tezroq yakunlab bizga-da yuborishni unutmang...

Shundan so‘ng muallifning o‘rinli bir badiiy izohi keladi: “O‘ta ziqna, toat-ibodat va bilimga vaqt sarflashni noo‘rin hisoblovchi, ammo ko‘ngliga yoqqan kishiga og‘zida chaynaganini-da

ilinuvchi chorvador...” [6., 124].

Hikoyaning so‘nggi epizodi Boburning Vatanni tark etish oldidagi holati tasviriga qaratilgan. Bunda muallif xayolotga emas real holatga asoslangan. Karvon yo‘lga chiqqan dastlabki paytda Bobur yo‘l yoqasidagi baland cho‘qqiga chiqadi. O‘z karvonini kuzatadi, cho‘qqidan to‘rt tomonga boqib, Vatan sarhadlariga so‘nggi bor iltijoli nigoh tashlaydi: “Mirzoning ko‘ziga tonggi quyosh nurlari charog‘on etgan Andijon qo‘rg‘oni, qo‘rg‘on sirtidagi mahallalar, Qo‘shtegirmon bog‘i, bog‘ darvozasidan chiqqan qaddi egik ulug‘ onasi Eson davlatbegim ko‘rindi...”

– Andijon,– dedi Mirzo,– Andijondan chiqqan quyosh olamni yoritadi...” [6., 125].

“Boburning bolaligi” hikoyasi yuqoridagi hikoyada tasvirlangan tarixiy voqealardan biroz oldingi vaziyatning badiiy talqiniga qaratilgani bilan tahlilga tortishga loyiq. Ammo bu asar yuqoridagi ikki hikoyadan syujet harakatining sustligi, voqealar dinamikasidagi mujmallik, kompozitsion nomuvofiqligi, tilning nihoyatda zerikarliligi bilan ajralib turadi. Hikoya Bobur va ustozining urug‘lar o‘rtasidagi kelishmovchilik, qirpichoq haqidagi suhbat bilan boshlanadi.

Yosh Bobur Sulton Ahmad Mirzoning hujumiga qarshi chiqish oldidan momosi Eson Davlat begim huzuriga kiradi. Uning duosini olmoqchi bo‘ladi. Shu o‘rinda keltirilgan Eson Davlat begimning Boburga uzundan-uzoq nasihati, Boburning muhim bir jang oldidan momosi oldida ko‘z yosh qilib o‘tirishi o‘quvchini ishontirmaydi. Ishontirishi nari tursin g‘ashini keltiradi. Haqiqatan ham, Boburdek harbiy zamon vakili, podshohzoda, botir va irodali shaxsning bolaligiga bunday sentimental holat mantiqan to‘g‘ri kelmaydi. Jangga kirishayotgan sarkarda jang rejasini tuzadi, qo‘shin holatini ko‘zdan kechiradi, qalbi tubidagi jang suronini tinglaydi. Uning nasihat tinglab ko‘z yoshi qilishga vaqti ham, xohishi ham bo‘lmaydi.

Keyin berilgan tush epizodi ham o‘quvchini ishontirmaydi. Sodda mantiq asosiga qurilgan Boburning tushi tush mantiqiga unchalik to‘g‘ri kelmaydi. Bobur tushida atrofning zulmat bilan qoplangani, olamonga to‘la maydon, bir-biriga chirmashib ketgan daraxtlar, gulxan atrofida loqayd o‘tirgan odamlarni ko‘radi. Ustozini izlab joyidan topa olmaydi. Tushda keltirilgan detal va holatlar o‘zaro mos emas. Ular tushning o‘ziga xos syujet mantiqiga mos emas. Tush faqat zulmat va yorug‘likdan iborat hayot mantiqiga bo‘ynsunmaydi aslida. Buni Sharq allomalari Jaloliddin Rumi, Sari Saqatiy, Moliki Dinor, g‘arb olimlari Z.Freyd, K.Yung, E.Frommlar atroflicha o‘rganib, o‘z fikrlarini bayon etganlar. Ularga ko‘ra tush yo o‘ta mantiqsiz, yoki aql bovar qilmas darajada karomatli bo‘ladi. Tushning har ikki shaklida ham ramziylik yetakchilik qiladi. Karomatli tushlar esa asosan kelajakka ishora qiladi. “Boburnoma”da keltirilgan tushlar shundan dalolat beradi. Ammo hikoya muallifi bu jihatlarning birontasini ham e‘tiborga olmaydi. O‘zi to‘qigan tushni asar syujetiga moslashga urinadi, xolos.

Yana bir ojiz nuqta shundaki, Sharq muhitida o‘sgan Bobur darhol tushi ta‘birini bilishga oshiqadi. Yana tushida izlagani ustozning oldiga emas, momosining huzuriga yo‘l oladi:

– Momojon, meni tinglang! (deb murojaat qiladi dabdurustdan Bobur).

– Xo‘sh yengilmas, bahodirim.

– Ajab tush ko‘rdim. Ta‘birini bilmoqqa juda oshiqamen.

Bizga ma‘lum tushini so‘zlab bergandan keyin Eson Davlat begimning javobi bundanda g‘aroyibroq:

Ha o‘g‘lim, yomon tush ko‘ribsiz,– momo yonida o‘tirgan navqiron nabirasiga rostini aytishga jazm etdi.-Sarosimali kunlar yaqinga o‘xshaydi. Ko‘nglim bezovta, bolam. Siz

bulardan cho‘chimang. [1., 10–11].

Bu o‘rinda badiiy mantiq va izchillik bir necha bor buzilganiga guvoh bo‘lamiz. Birinchidan, yomon tush ko‘rgan yosh Bobur tush ta’birlatish uchun mutafakkir ustozlarini emas, garchi momosi bo‘lsa ham ayol kishining oldiga boradi. Bu Sharq ma’naviy etikasiga to‘g‘ri kelmaydi. Ikkinchidan, Sharqda xavotirli deb hisoblangan tush birdan aytilmaydi. Hikoyadagi Bobur esa tushini aytishga oshiqadi. Uchinchidan, Eson Davlat begim tushni yomon ta’bir qiladi. Aslida Sharqda yomon tush ham yaxshilikka yo‘yiladi. To‘rtinchidan, momo nabirasining yomon tush ko‘rganini aytganda “Siz bundan cho‘chimang” deydi. Bu esa hayot mantiqiga ziddir.

Bizningcha, “Boburning bolaligi” quyidagi fazilatlar bilan hikoya deb nomlanishga haqli: 1) hikoya muallifi bola Bobur psixologiyasini uning tushi, atrofdagilar bilan munosabati asnosida yoritishga, bola obrazini namoyon etishga uringan; 2) hikoyada o‘ta qisqa muddatda kechgan tahlikali tarixiy vaziyat qalamga olingan; 3) muallif imkoni darajasida ilk bor Boburning katta onasi Eson Davlat begim obraziga chizgilar bergan; 4) asar sobiq sho‘rolar davri (1983- yil)da yozilgan bo‘lishiga qaramasdan unda milliy ruh, milliy tariximizga doir dolzarb ijtimoiy muammolar ko‘tarilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Омон Б. Бобурнинг болалиги. Ҳикоялар, эсселар. – Тошкент: Гафур Гулом, 2002. – 110 б.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Гафур Гулом, 2015. – 353 б.
3. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademyashr, 2010. – 650 б.
4. Санжар, Содик. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 320 б.
5. Султон, Хайриддин. Нуқта /Бобурнинг тушлари. – Тошкент: Гафур Гулом, 1993. – 380 б.
6. Узоқов М. Бобур соғинчи. Ҳикоялар. – Тошкент: Муҳаррир, 2013. – 420 б.
7. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. – 250 б.

